



## AUTIZM SPEKTRIDAGI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHDA LOGOPEDIK YONDASHUVLAR

**Sultanova Jasmina Quatbay qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktangacha va  
boshlang'ich talim Maxsus pedagogika: Logopediya 2-kurs talabasi

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirishda logopedik yondashuvlarning mazmuni, ahamiyati va samarali usullari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yoritiladi. Maqolada autizm spektridagi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning asosiy yo'nalishlari: diagnostika, individual korreksion reja tuzish, fonematik eshituvni rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, dialogik nutqni shakllantirish, alternativ va qo'shimcha kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, ota-onalar bilan hamkorlik va interfaol o'yin texnologiyalarining ahamiyati tahlil qilinadi.

### **Kalit so'zlar.**

Autizm spektri, logopediya, nutqiy muloqot, kommunikativ kompetensiya, alternativ kommunikatsiya.

Bugungi kunda maxsus pedagogika va logopediya sohasida autizm spektridagi bolalar bilan ishlash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Autizm spektri buzilishi bolaning ijtimoiy o'zaro munosabati, kommunikatsiyasi, xatti-harakati va qiziqish doirasida o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari bilan tavsiflanadigan neyrodevelopmental holatdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti autizmni ijtimoiy muloqot va o'zaro ta'sirdagi qiyinchiliklar hamda xatti-harakat va qiziqishlarning o'ziga xosligi bilan xarakterlanadigan holat sifatida izohlaydi [1]. Autizm spektridagi bolalarda nutqiy rivojlanish turlicha kechadi. Ayrim bolalarda og'zaki nutq deyarli shakllanmagan bo'lishi mumkin, boshqalarida esa so'z boyligi mavjud bo'lsa-da, undan ijtimoiy muloqotda maqsadli foydalanish qiyin kechadi. Ba'zi bolalar so'zlarni talaffuz qila oladi, lekin suhbatni boshlash, davom ettirish, savolga mos javob qaytarish, suhbatdoshning hissiy holatini anglash va nutqni vaziyatga moslashtirishda





qiynaladilar. CDC ma'lumotlarida autizmida ijtimoiy-kommunikativ belgilar, jumladan ko'z kontaktining sustligi, ismiga javob bermaslik, imo-ishoradan kam foydalanish yoki qiziqishlarini boshqalar bilan bo'lishmaslik kabi holatlar erda yoshdan ko'rinishi mumkinligi qayd etiladi [2]. Logopedning vazifasi autizm spektridagi bolaning faqat tovush talaffuzini to'g'rilash bilan cheklanmaydi. Bu jarayon bolaning umumiy muloqot ehtiyojlarini aniqlash, unga fikrini bildirishning qulay yo'lini o'rgatish, nutqiy va nonutqiy vositalardan foydalanish, ijtimoiy vaziyatlarda muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. ASHA ma'lumotlariga ko'ra, nutq-til mutaxassislari autizm spektridagi shaxslarni skrining qilish, baholash, tashxis jarayonida ishtirok etish va kommunikatsiyani rivojlantirishda muhim rol bajaradi [3]. Shu sababli autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish kompleks, bosqichma-bosqich va individual yondashuvni talab etadi. Bunday bolalar bilan ishlashda logoped, psixolog, defektolog, tarbiyachi, ota-ona va shifokor hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotning rivojlanishi odatdagi bolalar nutq rivojidan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Eng avvalo, bunday bolalarda kommunikativ tashabbus sust bo'lishi mumkin. Ya'ni bola biror narsani xohlasa ham, uni so'z bilan ifodalash o'rniga kattani qo'lidan tortishi, kerakli buyumga qarashi yoki yig'i orqali ehtiyojini bildirishi mumkin. Bu holat nutqning kommunikativ vazifasi yetarlicha shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Ikkinchi xususiyat: dialogik nutqdagi qiyinchilikdir. Autizm spektridagi bola ayrim so'zlarni bilishi, hatto uzun iboralarni yoddan ayta olishi mumkin, ammo suhbat jarayonida navbat kutish, savolga mos javob berish, suhbat mavzusini davom ettirish yoki suhbatdoshning fikriga munosabat bildirishda qiynaladi. Bu esa logopedik ishda faqat so'z o'rgatish emas, balki nutqdan ijtimoiy maqsadda foydalanishni ham rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchi xususiyat: exolaliya, ya'ni eshitilgan so'z yoki iboralarni takrorlashdir. Exolaliya ba'zan ma'nosiz takror sifatida ko'rinsa-da, ayrim hollarda bola uchun muloqotga kirishish vositasi bo'lishi ham mumkin. Masalan, bola kattalardan eshitgan tayyor iborani o'z ehtiyojini bildirish uchun ishlatishi mumkin. Shuning uchun logoped exolaliyani faqat yo'qotilishi kerak bo'lgan holat sifatida emas, balki uni mazmunli nutqqa aylantirish imkoniyati sifatida ham ko'rib chiqishi lozim.





To'rtinchi xususiyat: nonverbal muloqot vositalaridan foydalanishdagi cheklanishdir. Autizm spektridagi ayrim bolalar ko'z bilan aloqa qilish, imo-ishora, mimika, tana harakati orqali fikr bildirishda qiynaladilar. National Autistic Society ma'lumotlarida autistik bolalar va yoshlar uchun nutq va ijtimoiy kommunikatsiyani chuqurroq baholashda Speech and Language Therapist, ya'ni nutq va til terapevti/logoped yordami muhimligi ta'kidlanadi [4].

Autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish, avvalo, to'g'ri logopedik diagnostikadan boshlanadi. Diagnostika bolaning nutqiy imkoniyatlari, kommunikativ ehtiyojlari, tushunish darajasi, talaffuzi, lug'at boyligi, grammatik ko'nikmalari, fonematik idroki, imo-ishora va mimikadan foydalanish holatini aniqlashga qaratiladi. Logopedik diagnostika jarayonida quyidagi jihatlar e'tiborga olinadi:

Birinchidan, bolaning retseptiv nutqi, ya'ni kattalar nutqini tushunish darajasi aniqlanadi. Bola oddiy ko'rsatmalarni bajara oladimi, buyum nomlarini taniydimi, "ber", "ol", "kel", "ko'rsat" kabi sodda topshiriqlarga javob beradimi bularning barchasi muhim diagnostik belgilar hisoblanadi.

Ikkinchidan, ekspressiv nutq, ya'ni bolaning o'z fikrini qanday ifodalashi baholanadi. Bola so'z bilan gapiradimi, alohida tovush yoki bo'g'inlardan foydalanadimi, imo-ishora qiladimi, rasm yoki predmet orqali ehtiyojini bildiradimi bular individual reja tuzishda asos bo'ladi.

Uchinchidan, bola nutqining kommunikativ vazifasi aniqlanadi. Ba'zi bolalar so'zlarni takrorlaydi, lekin ulardan muloqotda foydalanmaydi. Bunday holatda logopedning asosiy vazifasi bolaga nutqni ehtiyoj bildirish, tanlov qilish, savol berish, rad etish, murojaat qilish va suhbatga kirishish vositasi sifatida qo'llashni o'rgatishdir.

To'rtinchidan, bolaning sensor xususiyatlari ham inobatga olinadi. Chunki ayrim autizm spektridagi bolalar baland tovush, yorqin rang, teginish yoki muhit o'zgarishiga sezgir bo'lishi mumkin. Mashg'ulotning samaradorligi bolaning sensor qulayligiga ham bog'liq.

Autizm spektridagi bolalar bir-biridan juda farq qiladi. Shu sababli barcha bolalar uchun bir xil logopedik dastur qo'llash to'g'ri emas. Har bir bola uchun individual korreksion-reja ishlab chiqilishi zarur. Bu reja bolaning yoshi, nutqiy darajasi, qiziqishlari, xulq-atvori, sensor ehtiyojlari va oilaviy muhitini hisobga olgan holda





tuziladi. Individual yondashuvning birinchi bosqichi bolaning kuchli tomonlarini aniqlashdir. Masalan, ayrim bolalar rasmi materiallarga yaxshi javob beradi, boshqalari musiqaga qiziqadi, yana ba'zilar konstruktor, hayvonlar, transport vositalari yoki raqamlar orqali muloqotga kirishishi mumkin. Logoped bolaning qiziqishlaridan foydalanib, uni nutqiy faoliyatga jalb etadi.

Ikkinchi bosqich: qisqa va aniq maqsadlar belgilashdir. Masalan, dastlab bolaning "ber", "yana", "yo'q", "ha", "meniki", "suv" kabi funksional so'zlardan foydalanishini shakllantirish mumkin. Keyinchalik bu so'zlar ikki-uch so'zli iboralarga, undan so'ng oddiy gaplarga kengaytiriladi.


Uchinchi bosqich: mashg'ulotlarni muntazam va izchil tashkil etishdir. Autizm spektridagi bolalar ko'pincha oldindan aytilgan tartib va barqaror muhitda o'zini qulay his qiladi. Shu sababli logopedik mashg'ulotlar aniq tuzilma asosida olib borilishi kerak: salomlashish, tanish faoliyat, yangi topshiriq, mustahkamlash, rag'batlantirish va yakuniy qism.

Autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirishda bir necha asosiy usullar samarali hisoblanadi. Ular bolaning individual imkoniyatiga qarab tanlanadi va bosqichma-bosqich qo'llanadi.

Birinchi usul: funksional kommunikatsiyani shakllantirishdir. Bunda bola nutqni hayotiy ehtiyojlarini bildirish uchun ishlatishga o'rgatiladi. Masalan, bola biror o'yinchoqni olishni xohlasa, uni yig'i yoki kattani tortish orqali emas, balki so'z, rasm, imo-ishora yoki maxsus kartochka yordamida so'rashga o'rganadi. Bu usul bolaning muloqotga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Ikkinchi usul: vizual qo'llab-quvvatlashdir. Autizm spektridagi ko'plab bolalar ko'rish orqali berilgan ma'lumotni yaxshiroq qabul qiladi. Shu sababli rasmi jadval, predmetli kartochkalar, kun tartibi sxemasi, "avval-keyin" jadvali, hissiyot kartochkalari va tanlov rasmlaridan foydalanish samarali bo'ladi. Vizual vositalar bolaning tushunishini yengillashtiradi va mustaqil muloqotga yordam beradi.

Uchinchi usul: alternativ va qo'shimcha kommunikatsiya vositalaridan foydalanishdir. Og'zaki nutqi shakllanmagan yoki cheklangan bolalar uchun rasm almashish tizimi, imo-ishora, predmetli belgilar, kommunikativ doska yoki maxsus elektron qurilmalar qo'llanishi mumkin. Bunday vositalar nutqni "to'xtatib qo'ymaydi", aksincha, bolaning muloqot ehtiyojini qondirib, keyinchalik og'zaki nutq





rivojiga ham yordam berishi mumkin. Autizm bo'yicha tadqiqotlarda ijtimoiy kommunikatsiya, til rivoji va AAC alternativ hamda qo'shimcha kommunikatsiya vositalari keng o'rganilgan yo'nalishlar qatoriga kiradi [5].

To'rtinchi usul: qo'shma e'tibor, ya'ni birgalikda diqqatni rivojlantirishdir. Bola kattalar bilan bir predmet yoki hodisaga birgalikda e'tibor qaratishni o'rgansa, muloqot uchun muhim poydevor shakllanadi. Masalan, logoped o'yinchoq mashinani ko'rsatib, "mashina yurdi", "to'xta", "yana yurdi" kabi qisqa iboralar bilan bolani o'zaro e'tiborga jalb qiladi.

Beshinchi usul: dialogik nutqni rivojlantirishdir. Bunda navbat bilan gapirish, savol-javob qilish, tanlov bildirish, salomlashish, xayrlashish, "rahmat", "iltimos" kabi ijtimoiy nutq birliklarini qo'llash o'rgatiladi. Buning uchun rolli o'yinlar, qo'g'irchoqlar, rasmi hikoyalar, "do'kon", "shifokor", "mehmon kutish" kabi vaziyatli mashqlar samarali hisoblanadi.

O'yin bolalar rivojlanishida asosiy faoliyat turlaridan biridir. Autizm spektridagi bolalar bilan logopedik ishda o'yin faoliyati alohida ahamiyatga ega. Chunki o'yin jarayonida bola majburiy tarzda emas, tabiiy qiziqish asosida muloqotga kirishadi. Logopedik o'yinlar bolaning yoshiga va rivojlanish darajasiga mos tanlanishi kerak. Dastlab predmetli o'yinlardan foydalanish mumkin: kubik terish, mashina yurgizish, qo'g'irchoqni ovqatlantirish, hayvonlarni joylashtirish. Keyinchalik syujetli-rolli o'yinlarga o'tiladi. Bunda bola "ona-bola", "do'konchi-xaridor", "shifokor-bemor" kabi vaziyatlarda nutqiy rollarni bajaradi. O'yin davomida logoped bolaning harakatini so'z bilan izohlaydi. Masalan: "Mashinani olding", "Mashina yurdi", "Yana ber", "Qizil kubik", "Katta ayiq uxlayapti". Bunday nutqiy kuzatish bolaning so'z va harakat o'rtasidagi bog'lanishni tushunishiga yordam beradi. Asta-sekin bola ham ushbu iboralarni takrorlash, keyin esa mustaqil qo'llashga o'rganadi. O'yin metodining yana bir afzalligi shundaki, u bolaning emotsional holatini yumshatadi. Autizm spektridagi ayrim bolalar rasmiy mashg'ulotda o'zini noqulay his qilishi mumkin, ammo o'yin orqali ular muloqotga osonroq kirishadi.

Autizm spektridagi bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish logopedik ishning muhim yo'nalishidir. Bunda so'zlar bolaning kundalik hayoti bilan bog'liq holda tanlanishi lozim. Dastlab eng zarur funksional so'zlar: ovqat, suv, ona, ber, ol, yana, yo'q, ha, och, yop, ketdi, keldi kabi birliklar o'rgatiladi. So'z o'rgatishda predmet,





rasm, harakat va real vaziyatdan foydalanish samarali. Masalan, bola suv ichmoqchi bo'lsa, shu vaziyatda "suv" so'zini aytishga yoki rasm orqali ko'rsatishga undaladi. Bu usul so'zning hayotiy ma'nosini mustahkamlaydi. Grammatik nutqni rivojlantirishda esa so'z birikmalari va sodda gaplar bosqichma-bosqich shakllantiriladi: "suv ber", "yana o'yna", "qizil mashina", "men olaman", "koptok dumaladi". Keyinchalik bola gapda sifat, fe'l, son, olmosh va ko'makchi so'zlardan foydalanishga o'rgatiladi. Muhimi, logoped bolani ko'p gapirishga majburlamasligi, balki muloqotga ehtiyoj uyg'otishi kerak. Nutq bolaning ichki ehtiyojidan kelib chiqqanda samaraliroq rivojlanadi.

Autizm spektridagi bolalarda uchraydigan exolaliya logopedik ishda alohida yondashuvni talab qiladi. Agar bola eshitgan gaplarini aynan takrorlasa, logoped bu takrorlarning qachon, qanday vaziyatda va qanday maqsadda ishlatilayotganini kuzatadi. Ba'zan bola exolaliya orqali rozilik, norozilik, xohish yoki xavotirini ifodalaydi. Exolaliya bilan ishlashda birinchi vazifa takroriy iborani mazmunli nutqqa aylantirishdir. Masalan, bola doim "suv ichasanmi?" deb takrorlasa, logoped unga "suv ichaman" yoki "suv ber" kabi mos javob shaklini o'rgatadi. Bunda model berish, qisqa javobni takrorlatish, rasm yoki real predmet bilan mustahkamlash samarali bo'ladi. Ikkinchi vazifa: bolaga tanlov berishdir. Masalan: "Suvmi yoki sharbat?" Bola javob berishga qiynalsa, logoped rasmi kartochkalarni ko'rsatib, "suv" yoki "sharbat" so'zini tanlashga yordam beradi. Shu orqali bola tayyor takror o'rniga mustaqil kommunikativ javob berishga o'rganadi.

Autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik nihoyatda muhim. Chunki logopedik mashg'ulot haftada bir necha marta o'tkazilishi mumkin, ammo bola har kuni oilaviy muhitda muloqot qiladi. Shuning uchun ota-ona logoped tavsiyalarini uy sharoitida davom ettirishi zarur. Ota-onalarga quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin: bola bilan qisqa, aniq va sodda gaplarda suhbatlashish; har bir harakatni so'z bilan izohlash; bolaga tanlov berish; uning har qanday kommunikativ urinishini rag'batlantirish; savollarni haddan tashqari ko'paytirmaslik; rasmi kartochkalardan foydalanish; televizor yoki telefondan ko'ra jonli muloqotga ko'proq vaqt ajratish. Ota-onalar bolaning nutqidagi kichik o'zgarishlarni ham qadrlashi kerak. Masalan, bola avval faqat yig'i orqali ehtiyoj bildirgan bo'lsa, keyin buyumni ko'rsatishi, undan keyin rasm tanlashi, keyinchalik





soʻz aytishi bularning barchasi rivojlanish bosqichlaridir. Logoped ota-onaga ushbu bosqichlarni tushuntirib borishi lozim.

Autizm spektridagi bolalar maktabgacha taʼlim tashkiloti yoki maktabda taʼlim olayotgan boʻlsa, logopedik yordam inklyuziv muhit bilan bogʻliq holda tashkil etilishi kerak. Bunda logoped faqat alohida xonada mashgʻulot oʻtkazuvchi mutaxassis emas, balki pedagogik jamoa bilan hamkorlik qiluvchi muhim shaxs hisoblanadi. Logoped tarbiyachi yoki oʻqituvchiga bolaning kommunikativ imkoniyatlari haqida tavsiyalar beradi. Masalan, bolaga koʻrsatmani qisqa berish, vizual jadvaldan foydalanish, javob berish uchun koʻproq vaqt ajratish, sensor ortiqcha yuklamani kamaytirish, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi uchun qulay vaziyat yaratish zarur. Inklyuziv muhitda logoped bolaning tengdoshlari bilan muloqotini rivojlantirishga ham eʼtibor qaratadi. Buning uchun juftlikdagi oʻyinlar, umumiy topshiriqlar, salomlashish va navbat kutish mashqlari, kichik guruhli kommunikativ mashgʻulotlar tashkil etiladi. Autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish uzoq muddatli, tizimli va individual yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Logopedik ish natijasida bolaning faqat soʻz boyligi emas, balki kommunikativ tashabbusi, ijtimoiy munosabatga kirishish qobiliyati, tushunish darajasi va mustaqil fikr bildirish imkoniyatlari ham rivojlanadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, autizm spektridagi yosh bolalarda til rivojiga qaratilgan aralashuvlar ijobiy natija berishi mumkin, ammo samaradorlik bolaning individual xususiyatlari, aralashuv turi, davomiyligi va oilaviy qoʻllab-quvvatlashga bogʻliq [6].

Muhokama jarayonida shuni alohida taʼkidlash lozimki, autizm spektridagi bolalarga nisbatan yagona, hammaga bir xil taʼsir qiladigan metod mavjud emas. Har bir bola oʻziga xosdir. Shu bois logopedik ish bolaning real ehtiyojidan kelib chiqishi kerak. Bir bola uchun ogʻzaki nutqni rivojlantirish asosiy maqsad boʻlsa, boshqa bola uchun rasmi kommunikatsiya vositasi orqali mustaqil ehtiyoj bildirish birinchi bosqich boʻlishi mumkin. Logopedik yondashuvning samaradorligi bolaning muloqotga boʻlgan ehtiyojini uygʻotish, uni majburlamasdan ragʻbatlantirish, oʻyin va kundalik vaziyatlardan foydalanish, ota-onalar bilan hamkorlik qilish va bolaning har bir kichik muvaffaqiyatini mustahkamlash bilan belgilanadi.

Autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish logopediya sohasining eng muhim va murakkab yoʻnalishlaridan biridir. Bunday bolalarda nutqiy rivojlanish





turlicha kechadi: ayrimlarida og‘zaki nutq sust shakllanadi, boshqalarida esa mavjud nutqni ijtimoiy muloqotda qo‘llash qiyin bo‘ladi. Shuning uchun logopedik ishda faqat tovush talaffuzini tuzatish emas, balki bolaning kommunikativ ehtiyojlarini aniqlash va unga muloqot qilishning qulay yo‘lini o‘rgatish asosiy vazifa hisoblanadi. Maqolada tahlil qilinganidek, autizm spektridagi bolalar bilan ishlashda diagnostika, individual reja, funksional kommunikatsiya, vizual qo‘llab-quvvatlash, alternativ kommunikatsiya vositalari, dialogik nutqni rivojlantirish, o‘yin texnologiyalari, lug‘at boyligini kengaytirish, exolaliya bilan maqsadli ishlash va ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Demak, autizm spektridagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish kompleks, izchil va bolaga yo‘naltirilgan yondashuv orqali samarali amalga oshiriladi. Logoped, ota-ona, pedagog va psixolog hamkorligi esa bolaning nutqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. World Health Organization. **Autism**. WHO Fact Sheet, 2025.
2. Centers for Disease Control and Prevention. **Signs and Symptoms of Autism Spectrum Disorder**. CDC, 2024.
3. American Speech-Language-Hearing Association. **Autism and Autism Spectrum Disorder: Practice Portal**. ASHA.
4. National Autistic Society. **Autism and Communication**. London: National Autistic Society.
5. Binns A. V. et al. **A scoping review of research on preschool autism interventions**. 2021.
6. Sandbank M. et al. **Intervention Effects on Language in Children With Autism**. 2020.
7. Vygotskiy L. S. **Myshlenie i rech.** – Moskva: Pedagogika, 1982.
8. Levina R. E. **Osnovy teorii i praktiki logopedii.** – Moskva: Prosveshchenie, 1968.
9. Volkova L. S. **Logopediya.** – Moskva: Vlados, 2007.
10. Qodirova F. U. **Maxsus pedagogika asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

